



BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BO'YICHA KONVENSIYASI VA UNDA O'ZBEKISTONNING ISHTIROKI

Ergashev Jahongir Sheraliyevich

Bojxona instituti o'qituvchisi

Mavlonberdiyev Asadbek Murodjon o'g'li

Bojxona instituti kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18438010>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 38-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

korruptsiyaga qarshi kurashish, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatlar bo'yicha boshqarmasi (UNODC), xalqaro hamkorlik, xalqaro standartlar, ratifikatsiya qilish.

ABSTRACT

Maqolada 2003-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tomonidan qabul qilingan Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasining qabul qilinish tarixi, sabablari, tuzilishi faoliyat mexanizmi unga a'zo davlatlarning ishtiroki, konvensiya doirasida amalga oshirilgan samarali ishlar shuningdek O'zbekiston tomonidan konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi va uning yurtimizda korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi o'rni yoritib beriladi.

So'nggi yillarda barcha sohalar singari, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ham o'zining ijobiy natijasini bermoqda. Ayniqsa, respublikamizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashni olib borishda jinoyatlarni barvaqt oldini olishga alohida e'tibor berilayotgani e'tiborlidir.

Bu borada yurtimiz taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan korruptsiya illatini ildizini yo'qotish va korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi murosasiz kurash olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini esa hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yil 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi yurtimizda korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asosi mustahkamlanishida muhim paydevor bo'ldi[1].

Korrupsiya bu - jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Korrupsiya (lot.Corrumpere-buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab

qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishni anglatadi. Korrupsiya juda qadimdn mavjud bo'lgan illat bo'lib buyuk imperiyalarning darz ketishi, zaiflashishi va hatto qulashiga o'z ta'sirini ko'rsatgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo uzoq vaqt davomida korrupsiya "sovg'a olish" deya xaspo'shlab kelindi. Davrlar o'tib 20-asrning 2-yarmida korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosda muhim masalaga aylandi. Shu paytdan boshlab ushbu sohada bir qator muhim ishlar amalga oshirildi shu jumladan: Transparency International hukumatlararo tashkiloti va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) qoshida poraxo'rlikka qarshi kurash bo'yicha konvensiya qabul qilindi va ishchi guruh tuzildi, vanihoyat, 2003-yilda bugun so'z yuritmoqchi bo'lganimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha boshqarmasi vasiyligida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi (United Nations Convention Against Corruption-UNCAC) qabul qilinib xalqaro miqyosda tatbiq qilindi [2].

Ushbu konvensiya yuqorida aytib o'tilganidek 2002-2003-yillarda Vena shahridagi muzokara, o'rganish va muhokamalardan so'ng 2003-yilning 31-oktabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilinib 2005-yil 14-dekabrdan boshlab kuchga kirgan. Hozirgi vaqtda mazkur konvensiyaga 192 ta davlat a'zo hisoblanadi (2025-yilning 25-sentabr holatiga ko'ra) shulardan 187 tasi BMT ga a'zo davlatlar qolgani Kuk orollari. Niue, Vatikan, Falastin va Yevropa ittifoqi. Ushbu konvensiyani xalqaro miqyosda BMTdek keng masshtabli tashkilot tomonidan qabul qilinishi so'nggi yillarda xalqaro miqyosda davlatlar ushbu illatga qarshi kurashish naqadar muhim ekanligini anglayotganidan dalolat beradi. Qolaversa, shuni aytib o'tish mumkinki konvensiya xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha eng birinchi va universal deya e'tirof etiladi [3].

Konvensiyaning tuzilishi haqida gapiradigan bo'lsak 8 bob 71 moddani o'z ichiga oladi ya'ni, 1-bob, Umumiy qoidalar 1-4 moddalar; 2-bob, Oldini olish choralari 5-14 moddalar; 3-bob Kriminallashtirish va huquqni muhofaza qilish 15-42-moddalar; 4-bob Xalqaro hamkorlik 43-50-moddalar; 5-bob Aktivlarni qaytarish 51-59-moddalar; 6-bob Texnik yordam ko'rsatish 60-62 moddalar; 7-bob, Amalga oshirish mexanizmi 63-64-moddalar; 8-bob, Yakuniy qoidalar 65 - 71-moddalardan iborat. Shuningdek xalqaro miqyosda konvensiyaning amaliyotga tatbiq etilishi juda muhim bo'lgan asosiy qismlari ham mavjud bo'lib unga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin [4]:

Xususan, konvensiyaning 3-bobida Jinoyat deb topilishi zarur bo'lgan holatlar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, konvensiyaning 5-moddasida Korrupsiyaga qarshi samarali siyosat yuritish, 6-moddasida esa, Korrupsiyaga qarshi alohida davlat organini tashkil etish (Bunga O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurash agentligini misol qilib keltirish mumkin).

Shu bilan birga, konvensiyaning 8-moddasida Davlat xizmatchilarining odob-axloq kodekslarini qabul qilishini ta'minlash va unda Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashni alohida ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, konvensiyaning 15-moddasi Mansabdor shaxslarga pora berish, 19-moddasida Xizmat vakolatlarini suiste'mol qilish hamda 20-moddasida Noqonuniy yo'l bilan boyish deb nomlangan bo'lib, bu kabi konvensiyaning bir necha moddalari ekspertlar tomonidan konvensiyaning eng muhim qismi deb baholanadi.

Mazkur konvensiyada O'zbekistonning ishtiroki haqida gapiradigan bo'lsak, mamlakatimiz ushbu konvensiyaga 2008-yil a'zo bo'lgan ammo bu vaqt davomida yurtimizda ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishilmadi. Shunga qaramay Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan so'nggi yillarda Korrupsiyaga qarshi kurash ishlari jadallashtirildi va ushbu siyosatni muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoniga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. [5]

Albatta bu borada xalqaro tajriba va global tashkilot hamda idoralar bilan muloqot zarur edi shundan kelib chiqqan holda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining turli xil yordamlari hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari asosida bir qator dolzarb ishlar amalga oshirildi. Shu tufayli 2020-yilning noyabr oyida O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan birgalikda ushbu davlatlar fuqarolik jamiyati tashkilotlari, xususiy sektor va davlat muassalarining vakillari uchun Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi bilan hamkrolikda o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Taskilotining korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi(UNCAC)ni amalga oshirish bo'cha seminar o'tkazildi.

Mazkur seminar davomida BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik rejasi imzolandi.

O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotganligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A.Burhonovning quyidagi so'zlari orqali ham bilish mumkin "UNODC tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston xalqi tomonidan to'liq qadrlanadi. Uyushgan jinoyatchilikka chek qo'ymasdan va korrupsiyaga qarshi kurashmasdan barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi". Ushbu xalqaro miqyosdagi xamkorlikning samarasi va natijasi o'laroq 2022-yil 29-yanvar kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonining 83-maqsadida "Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish" hamda 84-maqsadida **"Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish"** kabi maqsadlar belgilanganligi ham yuqoridagi fikrimizning isbotidir[6].

Iqtiboslar:

1. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonun" <https://lex.uz/docs/-3088008?ONDATE=21.04.2021>
2. Technical guide to the united nations convention against corruption New york 2004 https://www.unodc.org/documents/treaties/UNCAC/Publications/TechnicalGuide/09-84395_Ebook.pdf
3. UNCAC in a nutshell 2021 A quick guide to the United Nations Convention against Corruption for donor agency and embassy staff <https://uncaccoalition.org/wp-content/uploads/UNCAC-in-a-Nutshell-2021.pdf>

4. UNODC and Anti-Corruption Agency Sign Action Plan to Cooperate on Fight Against Corruption in Uzbekistan <https://www.unodc.org/roca/en/news/unodc-and-anti-corruption-agency-sign-action-plan-to-cooperate-on-fight-against-corruption-in-uzbekistan.html>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni <https://lex.uz/docs/4875784>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni 28.11.2022 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

